

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING BOSHLANG‘ICH TA‘LIM VA TARBIYAGA OID QARASHLARI

Xolova Sadoqat Erkinovna

Boshlang‘ich sinfo‘qituvchisi

Kattaqo‘rg‘on tuman 23-umumta‘lim maktabi

Kalit so‘zlar: *Mahmudxo‘ja Behbudi, jadidchilik, ma‘rifat, yangi usul maktablari, ta‘lim, tarbiya, o‘qituvchi, milliy uyg‘onish, maktab islohoti.*

Kirish

XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida yuz bergan ma‘naviy va ijtimoiy o‘zgarishlar xalq taqdiri, ayniqsa, ta‘lim tizimi bilan chambarchas bog‘liq edi. Shu davrda millatning uyg‘onishi va taraqqiyoti uchun kurashgan jadidlar harakati paydo bo‘ldi. Ularning eng yirik vakillaridan biri — Mahmudxo‘ja Behbudi bo‘lib, u xalqni ilm-ma‘rifatga, farzandlarni zamonaviy bilim olishga chorlagan.

Behbudi o‘z faoliyati davomida “yangi usul” maktablarini tashkil etish, darsliklar yaratish va o‘qitish metodikasini takomillashtirish orqali boshlang‘ich ta‘limni rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan. U ta‘limni faqat bilim berish emas, balki insonni komillikka yetaklovchi vosita sifatida talqin qilgan.

Asosiy qism

1. Mahmudxo‘ja Behbudi – ma‘rifatparvar jadidlar rahnamosi sifatida

Ziyolilar oilasida 1875 yil 20-yanvarda Samarqand shahrida dunyoga kelgan o‘zining dunyoqarashlarini oilasida shakllantirdi. Oiladagi muhit uni adabiyotga, siyosatga, ma‘rifatga bo‘lgan qiziqishini tezroq ro‘yobga chiqishiga sabab bo‘ldi. Uning otasi islom huquqshunosligi bo‘yicha yirik mutaxassis bo‘lib bu borada ko‘plab kitob va risolalar yaratgan edi. Adabiyot, tarix fanlari qatori siyosatshunoslikka qiziqqan Behbudi bu sohalar bilan jiddiy shug‘ullanadi. Jahonda bo‘layotgan siyosiy jarayonlarni ro‘znoma va oynomalar orqali kuzatib borayotgan Mahmudxo‘ja Behbudi 1902-yilda Makkaga borib xo‘ja va muftiy unvonlariga ega bo‘lib qaytadi. Bir qator maqolalari jurnal va gazetalarda chiqqan boshladi. Maktab, maorif, madaniyat, ma‘rifatparvarlik g‘oyalarini targ‘iboti ushbu maqolalarning markazida turardi. Behbudiyaning qarashlari ta‘limni milliy va umumjahon qadriyatlarini birlashtirishga yo‘naltirilgan edi. O‘quvchilarga milliy til, tarix, madaniyat va urf-odatlarni o‘rgatish, ular uchun ma‘naviy poydevor yaratish – boshlang‘ich ta‘limning ajralmas qismlaridan biri sifatida qaralgan.

Mahmudxo‘ja Behbudi (1875–1919) o‘z davrining eng ilg‘or fikrli ziyolilaridan edi. U Samarqandda yangi usuldagi maktablar ochib, o‘qituvchilar tayyorlash bilan shug‘ullandi. Uning “Risolai jadida” asari o‘sha davr maktablari uchun muhim o‘quv qo‘llanma bo‘lib xizmat qilgan. Behbudi o‘z maqolalarida “maktab insonni ma‘rifat sari boshlovchi yo‘l” ekanini

ta'kidlab, har bir ota-ona farzandini ilm olishga undashi kerakligini aytgan. Uning fikricha, ilm — millatning najoti, ta'lim esa taraqqiyotning kaliti.

2. Boshlang'ich ta'limga oid qarashlari

Behbudiy boshlang'ich ta'limni jamiyat taraqqiyotining poydevori deb bilgan. U quyidagi tamoyillarni ilgari surgan:

- 1) Yangi usulda o'qitish – o'quvchilarni yodlashga emas, tushunishga o'rgatish;
- 2) Fanlar tizimi – diniy ilmlar bilan bir qatorda hisob, jug'rofiya, tarix, tabiatshunoslik kabi dunyoviy fanlarni o'qitish;
- 3) Ona tilida ta'lim berish – bolalar ona tilida o'qigandagina bilimni chuqurroq o'zlashtiradi;
- 4) O'qituvchining roli – o'qituvchi bilim manbai, axloqiy o'rnak va xalqning yetakchisi bo'lishi kerak;
- 5) Tarbiya bilan bog'liqlik – ta'lim va tarbiya bir-biridan ajralmas tushunchalar bo'lib, “axloqsiz ilm – foydasiz”, degan g'oyani ilgari surgan.

Boshlang'ich ta'lim metodlari va yondashuv mahmudxo'ja Behbudiyning ta'lim metodlari va yondashuvlari o'qituvchilarni nafaqat bilim berishga, balki o'quvchini shaxs sifatida rivojlantirishga undaydi. U pedagogic metodlarni tanlashda talabalarni individual yondashuv orqali o'qitishga katta e'tibor qaratgan. U ta'limni faqat bilim olish jarayoni sifatida ko'rmaslik kerak. U shuningdek o'quvchini inson sifatida shakllantirishga, axloqiy qadriyatlarni birlashtirishga yo'naltirilgan edi. Behbudiyning ta'kidlashicha, har bir bolada o'ziga xos talent va qobiliyatlar mavjud, shuning uchun har bir o'quvchiga individual tarzda yondashish kerak. Shuningdek Behbudiyning ta'lim metodlari nafaqat bilim berish balki, o'quvchilarni kreativ fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan edi. U dars jarayonida o'quvchilarga faqat tayyor bilimni berish emas, balki o'zgacha fikrlashga undashni maqsad qilgan. Bu esa ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy etishga yo'l ochadi. Misol uchun Behbudiyning ta'lim metodida o'quvchilarning bilim olish jarayonida amaliyotdan foydalanish, o'zlashtirishni yanada samarali qiladi.

Mahmudxo'ja Behbudiy ta'limni ommalashtirish, milliy ma'rifatparvarlikni targ'ib qilishga qaratilgan bir qator metodlar qo'llagan. Uning asosiy metodlarimilliy ta'limni targ'ib qilishga qaratilgan va xizmat qilgan.

Behbudiyning boshlang'ich ta'lim haqidagi qarashlarining bugungi jamiyatdaagi o'rnini Mahmudxo'ja Behbudiyning boshlang'ich ta'lim haqidagi qarashlari nafaqat pedagogik nazariyaga, balki amaliyotga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Bugungi ta'lim tizimi asosan, o'quvchilarga ilm-fan, axloq va ma'naviyatni birlashtirishga intilmoqda.

3. Behbudiy qarashlarida tarbiya masalasi

Mahmudxo'ja Behbudiy ta'lim bilan bir qatorda axloqiy tarbiyaga ham katta e'tibor bergan. U o'z maqolalarida tarbiyani insonni inson qiluvchi omil, axloqni millatning yashovchanlik mezoni, yoshlarning ma'naviy pokligi esa millat istiqbolining kafolati deb hisoblagan. Uning “Padarkush” dramasi aynan axloqiy tarbiya yetishmasligi oqibatlarini ochib bergan asar sifatida mashhurdir.

Behbudiyning g'oyalari jamiyatni ilg'or qilish uchun ta'lim tizimining har bir bosqichi o'zgarishi kerakligi, ayniqsa boshlang'ich ta'limning ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Mahmudxo'ja Behbudiyning boshlang'ich ta'lim va tarbiyaga oid qarashlari haqida yozilgan adabiyotlar bir necha yillik ilmiy tadqiqotlar natijalar asoslanadi. Behbudiyning ta'lim tizimi va uning ilm-fan, madaniyatga bo'lgan yondashuvlari haqida quyidagi asarlarga murojaat qilish mumkin.

Behbudiyning „Tarbiya“ nomli asari yoshlarni ta'lim olishda intellectual va axloqiy jihatlarni birlashtirishga urg'u beradi. Behbudiyning „Maqsad“ asari. Bu asar o'z vaqtida zamonaviy ta'limning asosiy tamoyillarini kiritgan. Behbudiyning pedagogic g'oyalari o'zining yuksak axloqiylik va madaniyatni targ'ib qilishga qaratilgan. Mahmudxo'ja Behbudiyning tarbiyani maktab ta'limida amalga oshirish haqidagi qarashlaridir

4. Behbudi g'oyalarining zamonaviy ta'limdagi ahamiyati

Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar — kompetensiyaga asoslangan yondashuv, milliy qadriyatlarga tayangan ta'lim, o'qituvchining ijtimoiy mavqeini oshirish — Behbudi g'oyalari bilan uyg'unlashadi. Uning fikricha, ta'limning maqsadi — „aqli, axloqli, vatanparvar va mehnatsevar avlod“ni tarbiyalashdir. Behbudiyning boshlang'ich ta'limda tarbiya va ilm-fan tizimlarini uyg'unlashtirishdagi yondashuvlari tahlil qilinadi. Uning ta'limda an'anaviy yondashuvlaridan tashqari yoshlarni axloqiy va ma'naviy jihatdan tarbiyalash masalasiga kata e'tibor berganligi alohida ta'kidlanadi. Mahmudxo'ja Behbudiyning boshlang'ich ta'lim va tarbiyaga oid qarashlari metodologik jihatdan zamonaviy pedagogika va ta'lim tahlili metodlariga mos ravishda yondashiladi.

Xulosa

Mahmudxo'ja Behbudi o'z davrida boshlang'ich ta'lim va tarbiya sohasida yangi yondashuvlarni taklif qilgan buyuk ma'rifatparvar edi. U maktabni insonni kamolot sari yetaklovchi maskan sifatida ko'rdi, o'qituvchini esa jamiyatning eng mas'uliyatli vakili deb bildi. Bugungi kunda ham Behbudi ilgari surgan tamoyillar – ta'lim va tarbiyaning uzviyligi, milliylik va zamonaviylik uyg'unligi, o'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatish – boshlang'ich ta'lim metodikasining poydevorini tashkil etmoqda. Mahmudxo'ja Behbudiyning boshlang'ich ta'lim va tarbiya haqidagi qarashlari, ayniqsa axloqiy qadriyatlarni singdirish va ma'naviyatni rivojlantirishga kata e'tibor qaratgan. Uning pedagogic qarashlari bugungi ta'lim tizimiga to'g'ri yo'naltirilgan o'zgarishlar kiritishga yordam beradigan, asosiy g'oyalardan biridir. Behbudiyning ta'limga bo'lgan yondashuvlari nafaqat o'quvchilarning bilimni oshirish, balki ularda mas'uliyatli, vatanparvar va axloqiy jihatdan yetuk insonlar shakllantirishni maqsad qilgan. Mahmudxo'ja Behbudiyning boshlang'ich ta'lim va tarbiya haqidaagi qarashlari nafaqat o'z davrida, balki bugungi kun ta'lim tizimiga ham katta ahamiyatga ega. U yosh avlodni har tomonlari rivojlantirishga e'tibor qaratgan va ilm-fan, axloq, madaniyatni birlashtirishni maqsad qilgan. O'quvchi nuqtai nazaridan Behbudiyning o'quvchilarning intellektual va ma'naviy rivojiga qaratilgan yondashuvlarni o'rganish, bugungi kun ta'lim tizimida o'quvchilarning bilim olishiga qo'shimcha rag'batlantirish kiritish uchun foydalidir. Uning ta'limni omma uchun ochiq, teng va samarali qilish haqidagi fikrlari, ta'lim tizimidagi mavjud bo'shliqlarni

to'ldirishda hamda zamonaviy pedagogic usullarni joriy etishda muhim o'rin tutadi. Behbudiyni o'quvchi va o'qituvchilar uchun nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ega bo'lib, o'qitish metodikasini yanada mukammallashtirishga yo'l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Behbudiy M. Risolai jadida. – Samarqand, 1913.
2. Behbudiy M. Padarkush. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998.
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
4. Fitrat A. Rahbari najot. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000.
5. Sodiqov Q. Jadidlar ta'lim tizimi tarixi. – Toshkent: Fan, 2017.
6. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.